

## ICHAK PARAZITAR KASALLIKLARI BILAN KASALLANGAN BOLALARDA ALERGIK RINITNI O'ZIGA XOS TASHXISLASH VA DAVOLASH USULLARI

*Berdiyev Bexruz Baxodir o'g'li*  
*Botirov Abdurasul Jumayivech*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ichak parazitlar kasalliklari bilan kasallangan bolalarda allergik rinitni o'ziga xos tashxislash va davolash usullari, bolalarda oshqozon-ichak trakti surunkali kasalliklari, allergik kasalliklar va ovqat hazm qilish tizimi o'rtasidagi bog'liqlik to'g'risida to'liq fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** ichak parazitlar kasalliklari, allergik rinit, tashxislash, oshqozon-ichak trakti, allergik kasalliklar.

### **Kirish:**

Atopik dermatitning ko'p sonli holatlari ovqat hazm qilish organlari vazifasining buzilishi bilan kechadi, bu esa asosiy kasallikni avj olishi va asorat bilan kelishiga olib keladi. Atopik dermatitli bolalarning 74,8% da gastroenterologik patologiya bo'yicha nasliy moyillik asosan onalar avlodi tomonidan kuzatilgan. Oshqozon-ichak trakti tizimining zararlanish belgilari esa 81,5% bolalarda aniqlangan. Izolyatsiyalangan og'riqli abdominal sindrom 2,4% bolalarda, qorindagi og'riqni dispeptik shikoyatlar bilan birga kelishi –30,6%, og'riqni dispeptik sindrom va ich kelishini buzilishi bilan birga kelishi –68,4% kuzatilgan.

### **Asosiy qism:**

Ma'lumki, mualliflar ishtahani pasayishi (41,5%), ko'ngil aynishi (37,8%) va kekirish (23,1%) kuzatilishini aniqlashgan. Tekshiruvdan o'tgan bolalar guruhida gastrointestinal simptomlar ko'p hollarda bola hayotning birinchi yilida paydo bo'lgan va qabziyat eng ko'p uchraydigan belgilardan biri hisoblangan. Ushbu bolalarda gastrointestinal simptomlarining namoyon bo'lishi ko'pincha qo'shimcha ovqatlarni erta kiritish va noratsional ovqatlanish fonida kuzatilgan. Shubhasiz, ushbu holatlarning rivojlanishiga ovqatlanish tabiati bolaning ovqat hazm qilish organlarini funksional imkoniyatlariga mos emasligi sabab bo'lgan.

Ko'pincha, Atopik dermatit bilan kasallangan bolalar hayotining birinchi yilida qayt qilish kuzatilgan (bolalarning 28%da), ushbu holat ko'pincha ovqatlanishga allergenlarni, shu jumladan sigir suti oqsilini kiritilishi bilan bog'liq bo'lgan. Hayotining birinchi yilida qayt qilish kuzatilgan bolalarning 75%da gastroezofagial refleks belgilari katta yoshda ham saqlanib qolgan. Olingan ma'lumotlarga asoslanib, xulosaga qilish mumkinki, oziq-ovqat allergiyali va Atopik dermatitli bolalar hayotining birinchi yilida ovqat hazm qilish tizimi motorikasining buzilishi shakllanadi va keyinchalik og'irlashib boradi.

Allergik jarayonga kelsak, bola hayotining birinchi yilida sigir suti va tovuq tuxumiga sezgirlik muvofiq ravishda 88,2% va 83,0% bolalarda kuzatilgan. Atopik dermatitda oshqozon-ichak trakti zararlanishi bilan bog'liq bo'lgan ilgaridan yaxshi ma'lum bo'lgan fenomen bu oshqozon-ichak trakti epitelial bareri o'tkazuvchanligini ortishidir.

Ovqatga nisbatan allergiyasi bo'lgan bemorlarning najasi va ichak shilliqlarida antigenga xos antitanachalar aniqlangan, shu bilan birga ichak shilliq qavatining semiz hujayralari degranulyatsiyasi darajasi bilan me'da ichiga antigenni tasodifiy kiritilishiga javob o'rtasida ishonarli korrelyasion bog'liqlik aniqlangan. McCance KL va xammualiflar tadqiqotida atopik dermatitga chalingan bolalar me'dasiga sigir sutini ikki marotaba tasodifiy platsebo nazorati ostida kiritilishiga javoban najasda o'sma nekroz omili alfa, eozinofilli kationik protein va alfa-1-antitripsin konsentratsiyasi ichak yallig'lanish markeri sifatida aniqlangan.

Ko'pgina yuqumli kasalliklarning etimologiyasi va patogenezida allergik komponent muhim rol o'ynashi aniqlandi. O'tkir va surunkali ichak kasalliklari yuqumli kasalliklar orasida yetakchi o'rinni egallashda davom etmoqda. Ko'pincha o'limga olib keladigan yuqori foiz,

# ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

1-MART

ANDIJON, 2024

kasallik doimiy va uzoq davom etishi, etiologiya va patogenezda ba'zi savollarining noaniqligi, shuningdek tezkor diagnostika usullarining yo'qligi - bularning barchasi ichak kasalliklari muammosini dolzarb qilib kelmoqda.

Ko'pgina yuqumli kasalliklar allergiya mexanizmi bilan rivojlanadi. Shu sababli o'tkir va surunkali ichak kasalliklarining etimologiyasi va patogenezida patogen va shartli patogen ichak mikroorganizmlarining rolini o'rganish katta qiziqish uyg'otadi. Ichak kasalliklarida bakteriyalarga sezuvchanlik holatining oshishi va ichak kasalliklari patogenezida shartli patogen ichak florasining ayrim vakillarining ahamiyati, shuningdek, etimologiyasi dizenteriya bo'lmagan ichak kasalliklarida teri allergik sinamalarining diagnostik ahamiyati to'g'risida manbalarda ma'lumot yetarlicha berilmagan.

## **Xulosa:**

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, ichak kasalliklarining turli shakllari bo'lgan bemorlarni va sog'lom odamlarni kompleks bakteriologik, allergik va serologik tekshiruvlariga asoslanib o'tkir va surunkali ichak kasalliklarining rivojlanishida organizmning bakteriyaga sezuvchanligini oshishi muhim rol o'ynashini tan olish kerak. Bakteriologik, serologik va allergologik tadqiqotlar natijalarining bakteriya allergenlar bilan mos kelishi teri sinamalarning o'ziga xosligini ko'rsatadi, shuning uchun bu usulni shartli patogen ichak florasini vakillari keltirib chiqaradigan ichak kasalliklarining etimologiyasi va patogenezini aniqlashda diagnostika usullari arsenaliga kiritish imkonini beradi.

## **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Yusupov M.I., Odilova G.M., Jamalova F.A. Oziq muhit tarkibiga qarab ichak tayoqchasida gemolitik xususiyatlarning paydo bo'lishi // Iqtisodiyot va jamiyat. – 2021.
2. Odilova G., Shayqulov X., Yusupov M. Chaqaloqlarda stafilokokk diareyaning klinik va bakteriologik xususiyatlari // Doktor xabarnomasi jurnali. – 2020.
3. Odilova G.M., Rustamova Sh.A., Murotova Z.T. Bolalarda salmonellyoz etiologiyali ichak infeksiyalari kursining klinik va laboratoriya xususiyatlari // Pediatr. – 2017.
4. Xo'jaqulov, D. A., Yusupov, M. I., Shayqulov, X. Sh., & Boltaev, K. S. O'rtacha oziq-ovqat botulizmi bilan kasallangan bolalarda tashqi nafas olish holati. Fan va ta'lim masalalari, 2019 yil.